



TAKRORIY EKIN TARIQ YETISHTIRISHDA ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING AXAMIYATI.

Odinayev Sherali Jumanazarovich

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15211012>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 07- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 14-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Takroriy ekin, agrotexnologiya, yorma, mikroelement, o'g'it, naychalash, ro'vaklash, hosildorlik.

ABSTRACT

Ekinlar strukturasining o'zgarishi munosabati bilan dukkakli don ekinlaridan yuqori va sifatli xosil yetishtirishda intensiv texnologiyalardan biri sug'oriladigan maydonlarda ekilgan boshqoli don ekinlarini yig'ishtirib olingandan so'ng, bo'shagan maydonlarda takroriy ekin yetishtirishni ko'paytirishdan iborat.

Tariq qisqa o'suv davrida yuqori don va somon hosil berish xususiyatiga ega o'simliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda tariq asosiy va takroriy ekin sifatida ekiladi. Tariqni takroriy ekin sifatida yetishtirish, bir yilda ikki marta don hosili yetishtirishga imkon beradi.

Respublikamizda dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, fan-texnika yutuqlari va ilg'orlar tajribasini keng joriy qilish evaziga ekinlarning hosildorligini oshirish, hosil sifatini yaxshilash, ayniqsa mamlakatimizda don mustaqilligini ta'minlash ustida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ekinlar strukturasining o'zgarishi munosabati bilan dukkakli don ekinlaridan yuqori va sifatli xosil yetishtirishda intensiv texnologiyalardan biri sug'oriladigan maydonlarda ekilgan boshqoli don ekinlarini yig'ishtirib olingandan so'ng, bo'shagan maydonlarda takroriy ekin yetishtirishni ko'paytirishdan iborat.

Donli ekinlar, jumladan tariq o'simligi tarkibida inson hayoti uchun doimiy zarur bo'lgan barcha ozuqaviy mahsulotlar, jumladan, oqsil, kraxmal, vitamin, uglevodlar, moy, destrin, mineral tuzlar, klechatka, karbon suvlari va boshqa biologik faol moddalar saqlanadi. Iqtisodiy muammolarga boy bo'lgan hozirgi murakkab sharoitda donli ekinlar ekiladigan maydonlarni ko'paytirish va turli ekologik sharoitga moslashuvchan turlarni yetishtirish borasida juda ko'plab ishlar olib borilmoqda. Tariq o'simliklari qurg'oqchilikka chidamli bo'lgani uchun hozirgi kunga qadar asosan respublikamizning lalmikor yerlarida yetishtirib kelinmoqda.

Tariq qisqa o'suv davrida yuqori don va somon hosil berish xususiyatiga ega o'simliklardan biri hisoblanadi.

Tajribada ekiladigan navlarning tavsifi: Tariqning "Saratovskoe 853" navi - Saratov tajriba stansiyasida yaratilgan.

Saratov viloyatining maxalliy tariq navidan yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan. O'zbekistonda ushbu nav 1933 yildan buyon keng miqyosda shartli sug'oriladigan va lalmikor yerlarda ekish uchun tumanlashtirilgan. Nav qisqa tariq guruhiga va cho'l kichik guruhiga

kiradi. Boshqa guruhlarga nisbatan tuproq va havo qurg'oqchilikka ancha bardoshlilik bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda tariq asosiy va takroriy ekin sifatida ekiladi. Tariqni takroriy ekin sifatida yetishtirish, bir yilda ikki marta don hosili yetishtirishga imkon beradi. Ayniqsa, ekish me'yoring kamligi, tezpisharligi, qisqa kun o'simligi bo'lishi uning qimmatini yanada oshiradi. O'zbekistonning quruq, issiq havosi sharoitida takroriy ekilgan tariq yuqori hosil beradi. U takroriy bardoshlilik bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari: Dala tajribasi Toshkent viloyatining qadimdan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida olib borilgan. Bunda tajriba 10 ta variantda olib borilgan bo'lib, shundan tariq donining unuvchanligi nazorat variatda 194 dona hisobida 84,5 % hisobida bo'ldi. Barcha variantlarda 1 m² dagi o'simlik soni va unuvchanlik ko'rsatgichlari bir biridan juda katta farq qilmagan bo'lsada, tajriba maydoning reliefi, ekologik muhitidan kelib chiqqan holda turlicha bo'ldi. Maslan eng yuqori ko'rsatgich va unuvchanlik o'sa eng yuqori ko'rsatgich 8-variantda bo'lib, 1 m² dagi ko'chatlar soni 231 ta unuvchanlik 98,6 %ni tashkil etdi.

Ma'lumki, o'simliklar hayotining faollik darajasini ko'rsatuvchi eng muhim jarayonlardan biri bu o'sishdir. Bu jarayonda o'simlik tanasida barcha fiziologik va biokimyoviy reaksiyalar sodir bo'lib, natijada yangi hujayralar hamda organlarning hosil bo'lishi bilan ularning umumiy quruq massasini ortib borishi kuzatiladi. Shu bilan birgalikda o'simliklarning o'sishiga tashqi sharoitning ko'plab omillari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday omillarga harorat, yorug'lik, namlik, kabilarni kiritish mumkin. Lekin, agrotexnologik tadbirlar urug'larni maqbul muddatlarda ekish va ma'danli o'g'itlar ayniqsa ham o'simliklarni haddan tashqari o'sib ketishiga olib keladi.

Tajriba dalasida fenologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, tariqning ma'lum fazalari bo'lib, bular: maysalanish-tuplanish, tuplanish-naychalash, naychalash-ro'vaklash, ro'vaklash-gullash, gullash-pishish kabilardir. O'suv jarayoni davrida o'simlikning tuplash fazsi, naychalash fazasi va ro'vaklash fazalarida tariqning har bir variant bo'yicha o'simliklar misolida ildiz massasi va yer ustki massasi aniqlab borildi. Bunda tuplash fazasida eng yuqori ko'rsatgich "Master" (NPK 20-20-20 suvda eruvchan kompleks o'g'it) 5 kg/ga qo'llanilgan variantda kuzatilgan bo'lsa, aksincha eng past ko'rsatgich "Yara kristalon" (NPK 12-12-36 suvda eruvchan kompleks o'g'it) 5 kg/ga qo'llanilgan variantda kuzatildi. Bundash tashqari tariqning naychalash fazasida ham ya'ni "Master" (NPK 20-20-20 suvda eruvchan kompleks o'g'it) 8 kg/ga qo'llanilganda va ro'vaklash fazasida 10 kg/ga o'g'it qo'llanilganda eng yuqori ko'rsatgichni oldik.

O'simliklarning dastlabki rivojlanish davrlarida barg yuzasining haddan ziyod kengayishi qo'shimcha hosil (somon) to'planishini kuchaytiradi, yorug'likni kamaytiradi, gaz almashinuvini buzadi, poyalarning yotib qolishiga olib keladi, natijada don miqdori va sifati pasayib ketadi. O'simlikning bo'yi 50-150 sm ga yetadigan ichi kovak poxolpoya bo'lib yumshoq tukchalar bilan qalin qoplangan. Tariq tuplanishi, ya'ni 2-5 ta poya chiqarishidan tashqari, shoxlanish, boshqacha aytganda, poyasining yer usti bo'g'imlaridan chiqadigan ro'vakli kalta yon novdalari hosil qilishi mumkin. O'suv davrining dastlabki rivojlanish fazalarida tariq azotli o'g'itlarga juda talabchan bo'ladi.

Tadqiqotlarimizda ham tariq o'simligining bo'yi balandligi hamda quruq massalariga bog'liq holda o'zgardi. Tajribalarimizda turli xil me'yorda o'g'itlarining qo'llanishi bilan o'simlik bo'yi, o'sib rivojlanishi turlicha kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, Don yetishtirishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi, xususan tariq va shunga o'xshash don yetishtirishni ko'paytirish, mamlakat aholisi, xalq xo'jaligining donga bo'lgan talabini qondirish, respublikada yetishtirilgan don hosili oshirish xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Toshkent viloyati sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida tariqni takroriy ekin sifatida yetishtirishda ilk bor ildizdan tashqari oziqlantirish me'yorlari ta'sirida o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va don sifati o'rganilmoqda hamda ilmiy asoslash uchun tavsiya ishlab chiqilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-5009-sonli Qarori.
3. Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B - O'simlikshunoslik, Fan va texnologiya, 2018
4. Yaqubjonov O., Tursunov S. O'simlikshunoslik. Toshkent., "Fan va taraqqiyot", 2008.
5. Azizov B.M., Israilov I.A., Xudayqulov J.B.-O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot tishlari. T. ToshDAU. 2014
6. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B "Donli ekinlar biologiyasining ilmiy asoslari", Toshkent. Fan va ta'lim, 2022
7. Atabaeva X.N.-Donli ekinlarning biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi-T.ToshDAU, 2009
8. <https://www.agriculture.com>

INNOVATIVE
ACADEMY